



Farg'onaazot
aksiyadorlik jamiyati

fargonaazot_uz

www.azot.uz

fargonaazot.uz

AO Farg'onaazot

info@azot.uz

t.me/fargona_azot

Gazeta 1979 yil yanvar oyidan chiqa boshlagan.

Kimyogar

Ijtimoiy-iqtisodiy gazeta

№ 10 (1710)
2022-yil, 31-oktabr.

**KUZ-QISH MAVSUMINI
BETALOFAT
O'TKAZAYLIK! 2-bet**



**О ПОРЯДКЕ ВЫДЕЛЕНИЯ
ПОТРЕБКРЕДИТОВ**

3-стр.

**ДВИЖЕНИЕ —
ЭТО ЖИЗНЬ**

4-стр.

Tanlov

QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!

O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yanada oshirish, uni milliy qadriyat sifatida targ'ib qilish hamda davlat tiliga oid muammolarni hal etish maqsadida o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining 33 yilligi hamda O'zbek tili bayrami munosabati bilan "Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" respublika tanlovi g'oliblari e'lon qilindi.



Tanlov tashkilotchilari – Vazirlar Mahkamasi Ma'naviyat va davlat tilini rivojlantirish masalalari departamenti, respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Innovatsion rivojlanish vazirligi.

Tanlov uchta yo'nalishda o'tkazildi. "O'zkiyosanoat" AJ ikkinchi yo'nalish – "Davlat tilida ish yuritish yo'lga qo'yilgan eng yaxshi tizim" sifatida vazirlik, idora, xo'jalik birlashmalari orasida faxrli 2-o'rinni egalladi. "O'zkiyosanoat" AJga diplom,

esdalik sovg'alari, shuningdek, 20 million so'm pul mukofoti topshirildi.

Quvonarlisi, "Farg'onaazot" AJ aloqa sexi boshlig'i Oleg Vladimirovich Zdobnikov o'zbek tiliga bo'lgan cheksiz hurmati va mehri uchun Vazirlar Mahkamasining maxsus Faxriy yorlig'i hamda qimmatbaho sovg'a bilan taqdirlandi.

"O'zkiyosanoat" AJ matbuot xizmati.

ODOB-AXLOQ QOIDALARIGA RIOYA ETILISHI LOZIM



"O'zkiyosanoat" AJ tizimi korxonalari ishtirokida Zoom platformasi orqali davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan o'dob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash hamda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan yig'ilish o'tkazildi.

Joriy yilning 31-oktabr kuni "O'zkiyosanoat" AJ tomonidan tashkil etilgan yig'ilish Vazirlar Mahkamasining "Davlat fuqarolik xizmatchilari tomonidan o'dob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ta'minlash hamda davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrolarini masalalarini o'z ichiga oldi.

Yig'ilish "O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining birinchi o'rinbosari Odil Temirov raisligida bo'lib o'tdi. Unda tizim korxonalirining boshqaruv raislari, bosh mutaxassislari, boshqarmalar boshliqlari va mas'ul xodimlari ishtirok etdilar.

"O'zkiyosanoat" AJ boshqaruvi raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash

masalalari bo'yicha maslahatchisi Sanobar Abduraxmonova "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatida O'dob-axloq komissiyasini tuzish hamda xodimlarning xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari o'dob-axloq, jamoatchilik bilan munosabatlariga doir qoidalariga rioya etilishini ta'minlash to'g'risida"gi buyrug'ni barchaga o'qib eshittirdi. Shuningdek, yig'ilishda tizim korxonaliridagi davlat tili to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari ijrosi borasida amalga oshirilayotgan ishlar tanqidiy va tahliliy tarzda muhokama qilindi.

Yig'ilishda "Farg'onaazot" aksiyadorlik jamiyati ham ishtirok etdi va korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov tomonidan mas'ul xodimlarga ko'tarilgan masalalar yuzasidan qilinishi lozim bo'lgan ishlar bo'yicha topshiriqlar berildi.

O'z muxbirimiz.



KITOB – AQL O'CHOG'I

So'nggi yillarda mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish borasida izchil ishlar amalga oshirilib, aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Bu borada yurtimizda bir nechta dasturlar ishlab chiqildi. Shu o'rinda, badiiy kitoblar mutolaasining o'zbek tili mavqei oshirishda turgan o'rining beqiyosligini hisobga olgan holda O'zbek tili bayrami munosabati bilan, "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyati tizim korxonalirida o'zbek va jahon adabiyotidan foydalangan holda "Kitobxon xodim" tanlovi o'tkazishni rejalashtirib, Nizom ishlab chiqdi.

Nizomga asosan, jamiyatimizda tanlov tashkil etildi. Tanlovda korxona boshqarma va sexlaridan 14 nafar ishchi-xodim ishtirok etdi. "Kitobxon xodim" o'tkazilishining shaffofligini ta'minlash maqsadida hakamlar hay'atini korxonaga daxldor bo'lmagan, kitobxonlik va ma'naviyat sohasi mutaxassislardan tuzildi. Unda Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi Farg'ona viloyati bo'limi rahbar o'rinbosari Shavkat To'ychiev, Ahmad al-Farg'oni nomidagi Farg'ona viloyati Axborot-kutubxona markazi mutaxassislari hamda Koreya Xalqaro universiteti o'zbek tili o'qituvchisi, professor Muqaddam Ehsanovlar hakamlik qilishdi.

Aytib o'tish joizki, "Kitobxon xodim" tanlovi jamiyatimizda yuksak ma'naviyatni shakllantirish hamda mustahkamlashda badiiy asarlar roli va ahamiyatini xodimlar ongiga singdirish, ishchi-xodimlarni

kitob o'qishga chorlash hamda ularning intilishlarini qo'llab-quvvatlash, jamoada adabiy muhit shakllanishiga erishish va xodimlarda Vatanimiz tarixi, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, ijtimoiy hayot haqidagi tushuncha va bilim-ko'nikmalarini yanada yuksaltirish kabi maqsadlarni o'z ichiga olgan.

Tanlov uchta shart bo'yicha o'tkazildi. 1-shart "O'zbek adabiyoti bilimdoni", 2- shart "Jahon adabiyoti bilimdoni" va 3- shart "Men sevib mutolaa qilgan asar" bo'ldi. Qatnashuvchilar har bir shartda hakamlar hay'ati tomonidan javoblar to'liq, aniqligiga qarab 2, 1, 0 ballik tizimda baholab borildi.

"Men sevib mutolaa qilgan asar" shartida ishtirokchilar ro'yxat bo'yicha berilgan asarga annotatsiya yozib, unda asar g'oyasi, mazmuni, syujeti, qahramonlari, shuningdek, asardan olgan xulosasini 3 daqiga davomida lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida imloviy, uslubiy xatolarga yo'l qo'ymagan holda yozib, hakamlar hay'atiga taqdim etishlari lozim edi.

Juda qiziqarli va yuqori saviyada o'tgan tanlovda, o'rinar quyidagicha taqsimlandi. 3-o'rin ammiak-3 sexi yetakchi muhandis-texnolog Sodiqjon Qodirovga, 2-o'rin karbamid ishlab chiqarish sexi laboranti Manzura Fozilovaga nasib etdi. 1-o'rinni AK-72 sexi yetakchi mutaxassisi Farrux Mashrabov egalladi. Shu o'rinda,



aloqa sexi elektromontyori Gulnoza Marajabova, loyiha sektori muhandisi Muborak G'afforova, AS-72 sexi apparatchisi Nodira Soliyeva, Xo'jalik sexi ko'kalamzorlashtiruvchilari Odina Nazarova va Oqibaxon Mamajonovlarga faxriy yorliq va Yoshlar ittifoqi boshlang'ich Kengashi tomonidan kitoblar jamlanmasi taqdim etildi.

G'oliblikni qo'lga kiritgan AK-72 sexi yetakchi mutaxassisi Farrux Mashrabov "O'zkiyosanoat" aksiyadorlik jamiyatining tizim korxonalari o'rtasida bo'lib o'tgan respublika bosqichida ishtirok etdi va faxriy yorliq hamda pul mukofotiga ega bo'ldi.

E'zozxon ABDULLAYEVA.

Ko'rik-tanlov

ENG NAMUNALI MA'NAVIYAT XONASI



Korxonada "O'zkiyosanoat" AJning tizim korxonalirida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi tizimini yaratish, uning samaradorligini oshirish maqsadida tizim korxonalirida tashkil etilgan ma'naviyat xonalarini zamon talabi darajasida qayta jihozlash uchun o'tkazilgan "Eng namunali ma'naviyat xonasi" ko'rik-tanlovi e'lon qilingan edi.

O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida mazkur tanlov g'oliblarini taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tanlovda korxonaning barcha sexlari vakillari ishtirok etdilar. Ular bu tadbirga tayyorgarlik doirasida o'zlarining ma'naviyat va ma'rifat xonalarini did bilan bezab chiqdilar. Sexlarning jihozlangan ma'naviyat va ma'rifat xonalari hay'at a'zolari tomonidan tasdiqlangan Nizom asosida o'rganib chiqilib, baholab borildi. Natijalarga ko'ra, o'rinar belgilab olindi. Bayram arafasida

taqdirlash marosimi tantanali tarzda o'tkazildi. Tadbirida korxona boshqaruvi raisi Dilshod Mannonov ishchi-xodimlarni bayram bilan muborakbod etib, ularga sog'liq-salomatlik, oilaviy xotirjamlik va ish faoliyatida katta muvaffaqiyatlar tilab, tadbirini ochiq deb e'lon qildi.

So'ngra boshqaruvi raisining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha

maslahatchisi E'zozxon Abdullayeva jamiyat bo'yab o'tkazilgan ushbu tanlovda ishtirok etgan, korxonamizda ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishga o'zining hissasini qo'shib, faxrli o'rinnarni egallagan sexlarni sahnaga taklif etdi. Uning so'zlariga ko'ra, aslida ko'rik-tanlov Nizomiga asosan 2- va 3- o'rinar bittadan bo'lishi ko'zda tutilgan edi. Lekin rahbariyat taklifi bilan 2- va 3- o'rinar ikkidan bo'lishi belgilab berilgan. Tanlovda 3-o'rinnarni Markaziy kimyo

laboratoriysi va Idoraviy harbiylashtirilgan qo'riqlash xizmati egallab, 5 300 000 so'm pul mukofoti va diplomni qo'lga kiritganligini aytib o'tdi. 2-o'rinar esa Aloqa va Jihozlarni markazlashtirilgan ta'mirlash sexlari egallab, 7 910 000 so'm pul mukofoti va diplomga hamda mutlaq g'oliblik Mexanik ta'mirlash sexiga nasib etib, 11 300 000 so'm pul mukofoti hamda diplomga ega bo'lganligini e'lon qildi.

O'z muxbirimiz.



FAROVON KELAJAK UCHUN BUGUN QAYG'URAYLIK

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Respublikada ko'kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga asosan hozirgi kunda mamlakatimiz bo'ylab "Yashil makon" umummilliy dasturining "Dolzarb qirq kunlik" shiori ostida o'tayotgan ko'kalamzorlashtirish ishlari ayni pallasida ketmoqda.

"Yashil makon" dasturi bo'yicha respublikamizda 200 mln. tup manzarali daraxt va butalar ekilishi rejalashtirilgan bo'lib, ushbu dastur respublikamizni yanada obodonlashtirish va hayot tarzini yaxshilashga qaratilgan. Ta'kidlash joizki, daraxtlar havo tarkibidagi zararli gazlarni tozalaydi. "Parnik effekti"ni hosil qiluvchi



CO2 ni yutib, kislorod chiqaradi. Bu, o'z navbatida, "global isish"ni sekinlashtiradi, buning oqibatida Grenlandiya, Arktika va Antarktidadagi muzliklarning erishi sezilarli darajada pasayadi.

Bundan tashqari, manzarali daraxtlar o'zlarining soylari bilan odamlarni oftobning salbiy ta'siridan saqlaydi, yerning qurishi natijasida uning unumdor qatlami samarasining tushib ketishining oldini oladi, salqin va barhavo sharoit yaratadi. Shu jumladan, yer yuzidagi haroratning keskin tushib ketishi yoki ko'tarilib ketish sabablari keskin kamayadi, iqlimning bir me'yorda ushlab turilishiga zamin yaraydi. Ba'zi daraxtlar yer ostidagi suvlarning sizib chiqishi oqibatida yer relyefi buzilishini hamda botqoqliklarning kengayishi oldini oladi. Shu bilan birgalikda chiroyli manzara, xushbo'y ifor va o'ziga yarasha estetik ko'rinish baxsh etib turadi.

Aynan shuning uchun davlatimiz rahbari shunday savobli ishlarga qo'l urganlar. Ushbu ishlar negizida avlodlarimizning yaxshi rivojlanishi, eng yaxshi muhitda yashashlari, toza havo bilan nafas olishlari va ko'rkam hayot kechirishlaridek g'oyalari yotibdi. Zero, bizlardan kelajakka toza muhit, musaffo hayot, shaffof va tiniq maqsadlar meros bo'lib qolsin!

**Nurmuhhammad ABDULLAYEV,
MM, XT, AMM va XICHo SX boshqarmasi
AMM bo'yicha yetakchi mutaxassisi.**

SANATORIYAGA YO'LLANMA QANDAY QILINADI?



Endilikda keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar davlat xizmatlari markazlari orqali beriladi. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 11-maydagi qaroriga muvofiq, "Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar berish bo'yicha davlat xizmatlari ko'rsatishning ma'muriy Reglamenti"ga asosan, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga Davlat xizmatlari markazlari orqali sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalarni berish bo'yicha davlat xizmati ko'rsatish tartibi quyida keltirib o'tilgan.

Keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar yoki ularning vakillari tomonidan sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalarni berish bo'yicha davlat xizmatidan foydalanish tartibi bo'yicha keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga Davlat xizmatlari markazlari orqali sanatoriylarda davolanish uchun yo'llanmalar beriladi. Davlat xizmatlari markazlari yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali (keyingi o'rinlarda — YIDXP) orqali Agentlikning tuman (shahar) tibbiy-jitimoiy xizmatlarni rivojlantirish bo'limlari (keyingi o'rinlarda — vakolatli organ) tomonidan ko'rsatiladi.

Yo'llanmalar umumiy soni sanatoriylarning mavjud o'rinlari hamda tegishli moliya yilida Davlat budgetidan yo'llanmalar uchun maqsadli tartibda nazarda tutiladigan budget mablag'larlari doirasida belgilanadi.

Yo'llanmalar quyidagi toifadagi keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslarga beriladi: — urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar; — halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning yangi nikohdan o'tmagan beva xotinlari (beva erlari); — respublika ahmiyatiga molik shaxsiy pensiya oluvchi shaxslar;

— Chernobil AES holakati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil holakati sababli

nogiron bo'lib qolgan shaxslar; — yadro poligonlari va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar;

— I va II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar, ko'zi ojiz I guruh nogironini kuzatib boruvchi shaxs;

— o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalar. Yoshga doir pensiya oluvchilar. Yo'llanma olish navbati kelgan fuqaro O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga vaqtincha chiqib ketgan bo'lsa, shuningdek, asosli sabablarga ko'ra yo'llanmadan foydalanmagan taqdirda, fuqarolarning navbat muddati keyingi oyga ko'chiriladi.

Bunday holatda fuqaro oldingi ariza raqamini ko'rsatib, ushbu Reglamentning 2-bobida belgilangan tartibda qayta murojaat qilganda yo'llanmalar birinchi navbatda beriladi.

Vakolatli organlar tomonidan yo'llanmalar joylarda o'z vaqtida va maqsadli berilishi, keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar yo'llanmalarni olishlarida adolat tamoyillariga hamda navbatlilikka qat'iy amal qilinishini ta'minlashda javobgar hisoblanadi. Hududiy boshqarmalar yuqoridagi vazifalarning so'zsiz bajarilishi ustidan nazoratni olib borish uchun mas'ul hisoblanadi.

**A. ADERMATOV,
Farg'ona shahar Adliya
bo'limi yetakchi
mutaxassisi.**



NIKOHNING ASL MA'NOSI

Inson hayotga qadam qo'yar ekan, umri davomidagi jufti halolini hamisha qadrlashi, asrab-avaylashi kerak. U uchun yashashi, Olooh uchun sevishi, sevilishi lozim. Baxtli yashashi uchun hayoti mazmuniga aylangan insonga vafoli bo'lishi kerak.

Yangi xonadonga borayotgan qizlarimiz yoki yangi hayotga qadam qo'yayotgan yigitlarimiz, avvalo nikoh qanchalar muqaddas ekanligini bilmog'liklari muhim. Bizning keksa buvi-bobolarimiz, otanamiz, shunday hayot kechirishganki, uyi koshona bo'l-masa ham, makkajo'xoridan zog'ora un qilib non yeganda ham, turmush o'rtog'i mardikorlik qilib pul topib kelganda ham, boyilginingiza boylik qo'shilsin, deb duo qilib, bor-yo'g'iga sabr qilib, shukrona aytib yashab kelganlar. Aziz hayotini baxtga to'ldirayotgan insonlarimiz, sizning yoningizda hamroz bo'ladigan insoningiz sizga Olooh tomonidan berilayotgan omonatdir. Yoringizni shunday ardoqlangki, atrofingizdagi barcha insonlar sizga havas

ko'zi bilan boqishsin. Shunday inson bo'lginki, siz bilan bir yostiqaqa bosh qo'yg'an jufti halolingiz umrining oxirigacha siz bilan o'tkazgan kuniga afsuslanmasin. Insonlar esa go'zal hayot kechirayotganingizni ko'rib, hasaddan yiroq bo'lib, havas qila boshlasin. Yo'lingizni nurlil charog'on, hayotingizni ravon qiladigan darajada sizning baxtli hayotingiz ostonasi bundan-da go'zal hayot bilan boshlansin. Turmushning achchiq-chuchugiga sabrqanoatli bo'lib yashaylik. Kattalar bizning o'rnagimiz, hayotimiz yonar chiroqlari, ular kabi sabrli bo'lib yashash bizning eng katta vazifamiz. Baxtli, saodati bo'lib yashash barchamizga nasib ayalasin.

**Mahliyo QODIROVA,
SA va SKQT sexi
SOKU apparatchisi.**

KUZ-QISH MAVSUMINI BETALOFAT O'TKAZAYLIK!

Har yili korxona mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, atrof muhit muhofazasi va xavfli ishlar chiqarish obyektlari sanoat xavfsizligi boshqarmasi tomonidan kuz-qish mavsumida jamiyat bo'ylab profilaktik ishlar olib boriladi. Joriy yil ham bundan mustasno bo'lgani yo'q.



Profilaktik ishlar asosan 2022-2023 yilgi kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar va yong'inlar, is gazidan zaharlanishlar, gaz-havo aralashmasining chaqnashi kabi ko'ngilsiz holatlar oldini olish yuzasidan o'tkazilib kelinmoqda.

MM, XT, AMM va XICHo SX boshqarmasi yetakchi mutaxassisi Fazliddin Sotiboldiyev so'zlariga ko'ra, bunday tadbirlar jamiyatimiz xodimlarining ish joyi, hatto, o'z xonadonlarida ham turli xil

ko'ngilsizliklardan, ya'ni, isitish vositalaridan ehtiyotkorlik, hushyorlik bilan foydalanishga, is gazi oqibatida kelib chiqadigan yong'inlardan forig' bo'lishga sababchi bo'ladi. Shuningdek, favqulodda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalarda to'g'ri harakatlar sodir etib, o'zi va o'zgalar hayotini saqlab qolishlari uchun zamin yaratadi.

— Biz jamiyatimizning barcha sex va bo'limlariga tashrif tashkil etib, kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish, isitish, himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish borasida yig'ilish, suhbatlar va ko'rgazmaviy tadbirlar

o'tkazib kelaymiz, — deydi Fazliddin Ahliddinovich. - Bunday tadbirlardan biri oktabr oyining 11-sanasisda kelib chiqadigan yong'inlardan forig' bo'lishga sababchi bo'ladi. Shuningdek, favqulodda yuzaga keladigan baxtsiz hodisalarda to'g'ri harakatlar sodir etib, o'zi va o'zgalar hayotini saqlab qolishlari uchun zamin yaratadi. — Biz jamiyatimizning barcha sex va bo'limlariga tashrif tashkil etib, kuz-qish mavsumini betalofat o'tkazish, isitish, himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish borasida yig'ilish, suhbatlar va ko'rgazmaviy tadbirlar

O'z muxbirimiz.

MUVAFFAQIYATGA ERISHISH. BUNI MUTAXASSISLARDAN O'RGANING

Bugungi kunda korxonamiz yoshlariga yaratilgan shart-sharoitlar, kasbga yo'naltirish, har jabhada qo'llab-quvvatlash bilan birgalikda ularning bandligini ta'minlash, bunga ko'maklashish, tadbirkorlik g'oya va tashabbuslarini rag'batlantirish, ularning munosib daromad olishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar yaratish borasida ham katta ishlar olib borilmoqda.



Bu to'g'rida respublika miqyosida shaxsan davlatimiz rahbari shug'ullanib kelayotgani biz, yoshlar uchun katta kuch va shijoat ato etib kelaypti. Yurtimizda yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka keng jalb qilish kabi savobli ishlar zamarida ulardan hayotda o'z o'rnini topa oladigan, keng dunyoqarashga ega, sog'lom va dadil fikrlovchi shaxslar yetishib

chiqishlari yotadi. Korxonamizda yoshlar ishtirokida "Muvaqqafiyatga erishish sirlari" shiori ostida o'tkazilgan biznes-trening korxona yoshlarini o'z kasblariga bo'lgan muhabbatlarini, o'ziga ishonch hislarini yanada jo'shqinlantirib, qo'shimcha tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlarga biznesning sir- asrorlarini bilib olishlarida katta ko'mak bo'ldi.

Motivatsion biznes-treningga "Yoshlar - kelajagimiz" jamg'armasi bosh mutaxassisi Quddus Mo'yidinov, biznes-blogger, biznes-trener Oybek Qosimov, biznes-trener Xayriddin Rahmiddinov, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi bosh mutaxassisi Muhiddin Abdurahimovlar taklif etildi. Yosh bo'lishiga qaramay, o'z sohalarida katta g'alabalarga ega bo'lgan ushbu trenerlar yoshlarimiz

bilan turli xil treninglar o'tkazib bordilar, suhbat qurdilar. Korxonamiz Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti Kengashi tomonidan tashkil etilgan mazkur trening barcha yoshlarga manzur bo'ldi. Yoshlar ishtiroq bilan motivatorlar nutqini tingladilar, savollar berdilar.

O'z muxbirimiz.



MUVOZANATNI SAQLASH PSIXOLOGIYASI

Dunyoda eng muhimi — sog'liqmi yoki baxt? Agar farzandlar yosh bo'lsa, barcha ota-onalar: "Sog'lom bo'lishin!", o'sib-ulg'ayganlarida esa "Baxtli bo'lishin!", deb yo'nalishni baxtga o'zgartiradilar. Shundan kelib chiqib, ko'plab odamlar qulay hayotda yashashga intiladilar.

Bu esa bizga dam olish, xotirjamlik, ishonch, himoyalinish va zavqlanish imkonini beradigan narsa kabi ko'rinnadi. Xuddi qulaylikka intilib, cho'qqiga chiqayotgan odam kabi intilamiz. Bu cho'qqi qulaylik hududi bo'lib, har bir kishi uchun o'ziga xosdir va u virtual — fazoviy hamda jittimoiy va vaqt chegaralariga ega. Birmuncha vaqt ushbu qulaylikda yashagandan so'ng, uning

da'volar darajasi yanada oshadi. Biz, barcha tirik organizmlar kabi, biologik tizimlar va jittimoiy tuzilmalar rivojlanishi bosqichlarini boshdan kechiramiz. Agar biz qisqa muddatli barqarorlikdan so'ng yangi bosqichga o'tmasak, ijodkorlik, innovatsiya va o'zgarishlarga bo'lgan ishtiyoq ruhini yo'qotamiz. Agar biz yana yangi cho'qqiga chiqishga intilmasak, inqirozga

duch kelamiz. Ba'zan esa odamning kech gullab-yashnaganligi, qulay barqarorlik yoki pasayish bosqichiga o'tganligi qay darajada ekanligini aniqlash juda qiyin. O'zgarishlar va rivojlanishning yangi bosqichiga o'tish qulaylikni yo'qotish, uning hududidan chiqib ketish xavfi kabi qabul qilinadi va odadta bu, har qanday odamni tashvishga soladi. Xavotir — bu, odamning salbiy his-tuyg'ularining namoyon bo'lishi, bu kutilayotgan vaziyat va odatiy holatlarga mos kelmasligi bilan bog'liq. Bu xavotir yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy natijalar bilan bog'liqdir. Bunday vaziyatda nima qilish kerak? Me'yorni qanday ushlash kerak? Avvalo, siz me'yor nima bilan bog'liq ekanligini aniqlashingiz zarur, chunki sabab nimada ekanligini bilish yechimning bir qismidir. Sabablar quyidagicha

bo'lishi mumkin: hayotiy tajribaning yetishmaganligi; xato qilishdan qo'rqish, vazifani bajara olmaslik, muvaffaqiyatsizlikka uchraganlik; boshlang'ich resurslarning yetishmasligi (pul, sog'liq, vaqt).

Natijaning sifati mas'uliyatlik, mukammallik bo'lib, har qanday holatda o'zingizda mavjud narsani o'rinda qoldirishga harakat qilishda.

Bunda yosh chegaralari; kuch, energiya va hokazolarni yo'qotish uchun jiddiy sa'y-harakatlar va xavotirlarning zaruriy sarmoyasi; o'zlariga yoki boshqalarga yomon qarashdan qo'rqishdir.

Bundan tashqari, tashvish qo'shimcha energiyani sarflashga olib keladi. Shuning uchun, keyingi qadam ushbu me'yorga nisbatan resursni to'g'ri ishlatish bo'ladi. Xavotirni o'zgartirish mexanizmlaridan biri — bu, "Me'yorni ushlay bilish". Bu xavotirning o'ziga va uning kelib chiqish sababiga bo'lgan munosabati o'zgartirishdan iborat. Bunday holatda noaniqlik bilan bog'liq bo'lgan hamma narsani aniqlashtirishdan

iborat muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, agar siz xavotirga tushib qolsangiz, uning sababini aniqlashga biron vaqt ajratilgan hamda quyidagi savollarga javoblarni topishga intiling:

1. Bir vaqtning o'zida nima muhim va nima muhim emasligini aniqlab oling. Xayolingizda qanday joiyoy niyatlariniz bor? Ehtimol, bu biron-bir o'zgarishlarni boshlashdan oldin yaxshi tayyorgarlik ko'rish zarurligi to'g'risida ogohlantirishning bir usulidir? 2. Qarama-qarshi holatlar. Masalan, tajribasizlik xatolari va ularning sabablari. 3. Tashvishlanishning o'ziga xos "boshqarish" usulini toping va sergaklik bilan boshqaring. Ushbu vaziyatda sizning hissiyotingizga eng ko'p ta'sir qiladigan narsa tashvish bo'lib, bu "boshqarish" usuli sizdagi tashvishning ta'sirini pasaytiradi. Sizning ushbu holatingizning doimiyilgini ushlab turish variantlarini ishlab chiqing. 4. Tashvishlarni bartaraf etishning joiyoy hal etishi usullarini ishlab chiqing. Chunki tashvish holatda xavotir bilan kurashish

mag'lubiyatga olib keladi. Bunday holat sizning shaxsingizga qanday ta'sir qiladi? Sizga yana nima kerak?

5. O'zgarishlarni amalga oshirayotganda, boshqa odamlar va o'zingiz nigohingizda kim bo'lib ko'rinishingizni tasavvur qilib, o'zingizning qadr-qimmatigizni oshiring.

6. Agar siz o'zingizning tashvishingizni shu tarzda boshqarishni boshlasangiz, hamma narsa atrof-muhitga mos keladi va bu sizning hayotingizdagi boshqa biron- bir narsaning yomonlashuviga olib kelmaydimi? Agar kelmagan taqdirda, ehtimoliy salbiy oqibatlarini bartaraf etish uchun qanday choralar ko'rish kerakligi haqida o'ylang.

7. O'zgarishlarni amalga oshirish uchun aniq reja tuzing.

Agar siz biron-bir vaziyatda tashvishlanishning bir nechta sababini aniqlagan bo'lsangiz, topilganlarning har biri bilan ketma-ket ravishda avvalgi barcha amallarni bajarishingiz kerak.

**Nazira ERGASHEVA,
jamiyat psixologi.**

ИЗМЕНЕНИЯ В ПЕНСИОННОМ ОБЕСПЕЧЕНИИ ЛИЦ С ОГРАНИЧЕННЫМИ ВОЗМОЖНОСТЯМИ

Президент подписал Закон «О внесении изменений и дополнений в Закон Республики Узбекистан «О государственном пенсионном обеспечении граждан», направленных на совершенствование порядка назначения пенсии».

Законом дополняются нормы, вступающие в силу с 1 января 2023 года, в соответствии с которыми:

- время работы после назначения пенсии по инвалидности I и II групп засчитывается в стаж работы;
- по заявлению гражданина производится перерасчет пенсии один раз в два года с учетом стажа работы и заработка, приобретенного после назначения пенсии по инвалидности I и II группы, при наличии одного года стажа работы. При этом перерасчет пенсии производится исходя из необходимого стажа работы по отношению к установленному возрасту на дату обращения гражданина за перерасчетом размера пенсии.

Справка: пенсии по инвалидности вследствие общего заболевания назначаются при наличии следующего стажа работы ко времени наступления инвалидности:

Возраст	Стаж работы (в годах)
до достижения 23 лет	2
от 23 лет до достижения 26 лет	3
от 26 лет до достижения 31 года	5
от 31 года до достижения 36 лет	7
от 36 лет до достижения 41 года	9
от 41 года до достижения 46 лет	11
от 46 лет до достижения 51 года	14
от 51 года до достижения 56 лет	17
от 56 лет и старше	20

Гражданам, признанным лицами с инвалидностью вследствие общего заболевания в период работы или после ее прекращения до достижения 20 лет, пенсии назначаются независимо от стажа работы.

При переводе с пенсии по инвалидности вследствие трудового увечья или профессионального заболевания на пенсию по инвалидности вследствие общего заболевания необходимый стаж определяется по возрасту ко времени первоначального установления инвалидности.

Документ
перепечатан
из газеты
«Народное слово».

О ПОРЯДКЕ ВЫДЕЛЕНИЯ ПОТРЕБКРЕДИТОВ ДЛЯ МОЛОДЫХ IT-СПЕЦИАЛИСТОВ

26 октября 2022 года Кабинет Министров принял постановление «О внесении изменений и дополнений в некоторые решения Правительства Республики Узбекистан в связи с расширением возможностей для овладения молодежью современными знаниями и профессиями».

Документ предусматривает внесение изменений в акты законодательства, определяющие порядок выделения потребительских кредитов для молодежи на приобретение компьютеров.

Справка: С 1 ноября 2022 года АК «Халк банки», АК «Алока банк» и АКБ «Микрокредитбанк» начнут выделять молодежи, получившей сертификат участника или успешно окончившей соответствующие курсы в течение последних 6 месяцев, потребительские кредиты на приобретение компьютера (включая не произведенные в Узбекистане) в размере,

не превышающем 25 БРВ.

При этом часть процентных платежей по потребительским кредитам, выделяемым на приобретение компьютера, до 1,5-кратного размера основной ставки Центрального банка, компенсируется за счет Фонда по поддержке государственной молодежной политики Агентства по делам молодежи.

Согласно порядку:

